

ARAB OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA KENG TARQALGAN STILISTIK XATOLAR

Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich

O'zDJTU, «Lingvistika: arab tili»

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Shamsuddin99@icloud.com

Tikayev G.G.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjima fakulteti arab tili tarjima nazariyasi va

amaliyoti kafedrasining dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab ommaviy axborot vositalarida keng tarqalgan stilistik xatolar, ularning turlari va sabablari o'rganildi. Mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari taklif etildi. Arab OAVlarida ko'p kuzatiladigan sintaksis, leksik, morfofologik hamda orfografik xatolarga amaliy misollar keltirilib, ularning to'g'ri shakli qanday bo'lishi ko'rsatib o'tildi. Maqola o'zbek tilidagi axborotlarni arab tiliga to'g'ri tarjima qilishga turtki bo'ladi.

Kalit so'zlar: arab ommaviy axborot vositalari, stilistika, sintaksis, leksika, morfologiya, orfografiya, grammatika, nahv, sarf.

Аннотация. В данной статье проведен анализ наиболее распространенных стилистических ошибок в арабских СМИ, их разновидности и причины возникновения. Авторами предлагаются пути устранения и решения этих проблем. Приведены в качестве примера исправленные формы синтаксических, лексических, морфологических и орфографических ошибок, которые чаще всего встречаются в арабских средствах массовой информации. Статья указывает на необходимость правильного и корректного перевода информации с узбекского языка на арабский язык.

Ключевые слова: арабские СМИ, стилитика, синтаксис, лексика, морфология, орфография, грамматика, нахв, сарф.

Abstract. This article explores the common stylistic errors found in Arab mass media, their types, and causes. It also suggests ways to address the existing problems. Practical examples of frequent syntactic, lexical, morphological, and orthographic mistakes in Arab media are provided, along with the correct forms. The article aims to encourage the proper translation of information from Uzbek into Arabic.

Key words: Arab mass media, stylistics, syntax, lexicon, morphology, orthography, grammar, nahv, sarf.

Kirish. Arab ommaviy axborot vositalari (OAV) zamonaviy jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Ular madaniyatni tarqatish, siyosiy va ijtimoiy muhokamalarga hissa qo'shish, shuningdek, tilni saqlab qolish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shunga qaramay, arab tilida faol ishlatiladigan OAVlarda, ayniqsa yozma va og'zaki chiqishlarda stilistik xatolarga ko'p duch kelamiz. «Stilistik xato» - tildan foydalanishda uslubiy normalarga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladigan xato. Bu

xatolar soʻzning gapdagi oʻrni, maʼno ifodalashi, shakli yoki yozuv tarzida namoyon boʻladi. Shunga koʻra stilistik xatolarni sintaksis, leksik, morfologik va orfografik kabi turlarga boʻlish mumkin.

1. Sintaksis xatolar (الأخطاء النحوية). Bu xatolar jumladagi soʻzlarning notoʻgʻri tartibda joylashuvi, ifodalarning grammatik talablariga javob bermasligi, soʻz oxiridagi harakat va harflarni notoʻgʻri aytish natijasida yuzaga keladi. Muhtado bilan xabar yoki sifat bilan sifatlanmishni notoʻgʻri moslashtirish, son (عدد) bilan sanalmish (معدود) ga oid qoidalarga amal qilmaslik shular jumlasidandir. Masalan: سافرتُ إلى الخمسة وعشرين. Chunki bir-biriga و bilan bogʻlangan sonlarning yo ikkisiga qoʻshiladi, yo ikkisiga qoʻshilmaydi. Gapda esa birinchi son (الخمس)ga qoʻshilib, ikkinchisi سافرتُ إلى سافرتُ إلى الخمس والعشرين بلدة yoki سافرتُ إلى سافرتُ إلى الخمس والعشرين بلدة deb aytish toʻgʻri boʻladi. Yana المحاضرة الخامسة عشر deyish ham xato. Chunki barcha tartib sonlarning jinsi sanalmish jinsi bilan bir xil boʻlishi kerak. Gapda esa sanalmish (القاعدة) muannas boʻlishiga qaramasdan 10 (عشر) muzakkar holda keldi. Aslida المحاضرة الخامسة عشرة deyish kerak. Sintaksis xatolarga yana quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- «Barcha sohalarda» - iborasini في كافة المجالات deb aytish xato. Toʻgʻrisi: في كافة المجالات boʻladi. Chunki soʻzi gapda hol boʻlib kelgan. Hol oʻz egasiga (صاحب الحال) izofa qilinishi mumkin emas.

- «Abu Xazir firmasi» iborasini arab tilida شركة أبو خضر deb aytish xato. Chunki kabi maxsus ismlar muzof boʻlganda bilan yozilishi va aytilishi shart. Firma va shu kabilarning nomlari bu nahviy qoidadan istisno qilinmaydi. Demak ibora شركة أبي خضر deb ifoda etiladi.

- «Yigʻilish tush vaqtigacha kechiktirildi» iborasida deb تأجل الاجتماع إلى بعد الظهر hisoblanadi. Chunki kabi gapda soʻzidan oldin إلى ni ishlatish xato hisoblanadi. Chunki قط، قبل، بعد kabi gapda faqatgina zarf (oʻrin-payt) vazifasida keluvchi soʻzlar (الظروف الجامدة) oldidan إلى harfini ishlatish mumkin emas. Bunday holatda بعد soʻzidan oldin ما masdar harfi qoʻllanilishi lozim. Shunga koʻra yuqoridagi ibora: deb تأجل الاجتماع إلى ما بعد الظهر aytiladi.

2. Leksik xatolar (الأخطاء اللغوية). Soʻz va iboralarni notoʻgʻri ishlatish, ularning maʼnosini buzib yoki kontekstga mos kelmaydigan tarzda qoʻllash, feʼllarni ularga xos boʻlmagan harfi jarlar bilan keltirish leksik xatolar jumlasidandir. Bu holatlarga bir necha misollarni keltirishimiz mumkin:

- «Loyiha muvaffaqiyatli deb inobatga olinmadi» iborasini لم يعتبر المشروع ناجحاً deb emas, لم يعد المشروع ناجحاً deb aytgan toʻgʻriroq. Chunki اعتبار soʻzi «biror narsadan saboq chiqarish» maʼnosida qoʻllaniladi.

- «Bir million dollarga yaqin puli bor» iborasida «yaqin», «atrofida» soʻzlarini kalimasi bilan ifodalash xato. Buning oʻrniga نحو soʻzi ishlatilishi kerak. Chunki joyga nisbatan qoʻllaniladi. Masalan, تنزهت حوالي الحديقة - «bogʻ atrofiga sayr qildim» deyish mumkin. Yuqoridagi gap arab tilida bunday aytilgani toʻgʻriroq: يملك نحو مليون دولار.

- «Senga zarur» iborasini ينبغي عليك bilan emas, balki ينبغي deb ifodalash toʻgʻri boʻladi.

- «Bino odamlar bilan to'la» iborasini ملىء بالمبنى deyish xato. Chunki مملئى yoki مملوء «badavlat inson»ga nisbatan qo'llaniladi. Bu so'zning o'rniga kalimalarini ishlatgan afzal.

- «Yig'ilishga birga keldilar» iborasini deb جاؤوا سويا qo'llash xato. To'g'risi اجتماع bo'ladi.

Yana bir muhim nuqtaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Arab ommaviy axborot vositalarida ma'lumotlar ko'pincha قام بـ yoki تَمَّ «yordamchi fe'llar»i bilan ifoda etiladigan bo'lib qolgan. Holbuki, arab tilida «yordamchi fe'l» degan tushuncha yo'q. Masalan: «Texnik muammo bartaraf etildi» - تم حل المشكلة التقنية - «Yangi maktab ochildi» - سيتم - «Olti oydan keyin eski o'quv dasturlaridan voz kechiladi» - تم افتتاح المدرسة الجديدة - «Rahbar markazni ochdi» - deb aytiladi. Yoki «تخلّى عن البرامج الدراسية القديمة بعد ستة أشهر» - قامت اللجنة بنفّذ الأمر - «Qo'mita ishni bajardi» - قام المدير بافتتاح المركز Bu kabi gaplar aslida dan keyingi masdarni majhul, قام dan keyingisini esa ma'lum fe'lga aylantirib aytish kerak: خُلّت kabi. Toarab.ws saytida taqdim qilingan maqolada hamda قام fe'llarini «yordamchi» fe'l qilib qo'llash ingliz tilidan kirib kelgan bo'lishi mumkinligi aytilgan: «it has been discussed» - تمت دراسة المعاملة - «has been reached» - تم التوصل إلى. Modomiki, yoki bilan aytilgan gap bilan yoki fe'llarisiz aytilgan gap orasida hech qanday farq yo'q ekan, u fe'llarni ishlatish «gapni behuda cho'zish» (تطويل أو حشو) hisoblanadi. Arabshunoslar, ayniqsa, balog'at fani mutaxassislari bu holatni tanqid qiladilar.

3. Morfologik xatolar (الأخطاء الصرفية). Bu kabi xatolar ko'pincha ismlarni ko'plik shaklga o'tkazishda, ko'zlangan ma'no bilan fe'llar qoliplarining uyg'unligida kuzatiladi. Buni ham misollar orqali ko'rib chiqamiz:

- «Shirkat rahbarlari» iborasini مدراء الشركة deyish ham to'g'ri emas. Chunki مدير so'zining ning ko'plik shakli مديرون, shunga binoan iborani الشركة deyish kerak.

- «Muammoni hal qilishga o'z hissassini qo'shdi» degan iborani حل المشكلة deb emas, fe'li bilan ifodalagan ma'qul. Chunki fe'li odatda «qur'a tashladi» (تبارى بالسهم) va «sayladi» (اقترع) ma'nolarida ishlatiladi.

- «Oylik oldi» - استلم الراتب emas, deb ifoda etilishi kerak. Chunki, استلام - «teginish» ma'nosini bildiradi.

4. Orfografik xatolar (الأخطاء الإملائية). Arab OAVlarda imlo xatolari ham keng tarqalgan. Ushbu imlo xatolarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

a) hamzaning noto'g'ri yozilishi. Bu quyidagi shakllarda ro'y beradi:

- hamzasiz aliflarga hamza qo'yish. Masalan: إسم، الامتحان. Aslida: اسم، امتحان deb yozish kerak.

- hamzali aliflarga hamza qo'ymaslik. Masalan: إخراج، أخطاء. Aslida: إخراج، أخطاء deb yozish kerak.

- hamzani noto'g'ri ko'rinishda yozish. Masalan: جزءاً، شيئاً، مسئولية. Aslida: جزءاً، شيئاً، مسؤولية deb yozish kerak.

b) «ta: marbuta» (التاء المربوطة) bilan «ta: mamduda» (التاء المبسوطة) almashtirib qo'yish. Masalan: رواة deb yozish. harfini tarzida yozish ham xato sanaladi. Masalan: مدرسة ni مدرسه deb yozish.

c) ikki soʻz orasini xato ajratish. Masalan: الرؤساء و الوزراء deb yozish xato, aslida, و ni keyingi soʻzga qoʻshib: الوزراء والوزراء koʻrinishida yozish kerak. Shuningdek, كلما ni ajratib: ما كل deb yozish, فيما بينهم ni qoʻshib: deb yozish ham xato. Chunki ما maʼno anglatmaydigan (زائدة) harf yoki masdar harfi boʻlsa, oldingi soʻzga qoʻshib yozilishi kerak: كلما ربما، مثلما، إنما، kabi. Agar ما ismi mavsul yoki ismi shart boʻlsa, oldingi soʻzdan ajratib yozilishi lozim: إن ما فعلته معيب yoki فيما بينهم kabi.

d) harfi jarlar bilan birga kelgan soʻroq olmoshlarini xato yozish. Masalan: بم iborasini «bu gap nimaga ishora qilyapti?» gapidagi على ما deb yozish ham xato. Chunki ما soʻroq olmoshidan oldin harfi jar kelsa، nutqda ham, yozuvda ham aks etmaydi. Yana علام يدل هذا القول - «bu gap nimaga ishora qilyapti?» deb yozish ham xato.

Stilistik xatolarning sabablari. Arab OAVlarida stilistik xatolarning koʻpayishi bir qancha omillarga bogʻliq:

1. Tahririyat eʼtiborsizligi. Baʼzi hollarda materiallar professional til mutaxassislari tomonidan tahrir qilinmaydi, bu esa stilistik xatolarga olib keladi.

2. Mahalliy dialektlar taʼsiri. Arab dunyosidagi koʻplab jurnalistlar va boshlovchilar mahalliy dialektlardan foydalanadi, bu esa fusʼha (adabiy arab tili)ga xos boʻlmagan grammatik xatolarga olib keladi.

3. Texnologiyalarning cheklanganligi. Arabcha yozuvni avtomatik tahrirlash imkoniyatlari cheklangan. OAV xodimlari koʻpincha orfografik tuzatishlarni eʼtibordan chetda qoldiradilar.

Stilistik xatolarni bartaraf etish choralari. Arab OAVlaridagi stilistik u yoki bu xatolarni kamaytirish uchun quyidagi amaliyotlarni tavsiya etish mumkin:

1. Til boʻyicha treninglar oʻtkazish. Jurnalistlar va boshlovchilar uchun arab tili boʻyicha doimiy treninglar tashkil etish zarur. Bu, ayniqsa, fusʼha tilida toʻgʻri soʻzlash va yozish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

2. Tahririyat sifatini nazorat qilish. Har bir nashr yoki efir oldidan materiallarni tajribali tilshunoslar tekshirishlari kerak.

3. Sunʼiy intellekt vositalaridan foydalanish. Grammatik xatolarni aniqlash uchun arab tili grammatikasiga moslashtirilgan zamonaviy dasturiy taʼminotlardan foydalanish lozim.

Xulosa. Arab OAVlarida keng tarqalgan grammatik xatolar nafaqat tilning buzilishiga, balki OAVning ishonchliligi va obroʻsiga ham salbiy taʼsir qiladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun qatʼiy choralar koʻrish va barcha turdagi til madaniyatini rivojlantirish muhimdir. Til faqat aloqa vositasi emas, balki jamiyatning madaniy boyligi sifatida ham saqlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ahmad Muxtor Umar. «Muʼjam as-sovab al-lugʻoviy». Alam al-kutub nashriyoti, 1991.

2. Ahmad Muxtor Umar. «Axto al-lugʻoti al-arobiyyati al-muʼasiro inda al-kuttabi va al-izaʼiyyin». Alam al-kutub, 1993.

3. Mustafu Gʻolayiniy. «Jameʼu ad-durusi al-arobiyya». Muassasatu al-risala nashirun, 2010.

4. Zuhdiy Abu Xalik. «Al-impla al-muyassar». Dar Usama, 1998.

5. <http://toarab.ws>
6. <https://www.akhbaralaan.net>